

AHMAD YASSAVIY - TARIQAT ASOSCHISI

Sharipova Marjona Ravshanovna –

BuxDU Tarix va Yuridik fakulteti IV bosqich talabasi.

Sharipova Marjona Ravshanovna

is a student of 4th stage of the Faculty of history and Law of BuxSU

Шарипова Маржона Равшановна –

студентка 4 ступени историко-правового

факультета БухГУЮ

Tayanch iboralar: Tasavvuf, Mutasaffuv, shayx, Yassi, xalifa, xurmo, Arslon bob, tariqat, Buxoro, murid.

Key words: Sufism, sheikh, Yassi, caliph, palm, Arslan bob, sect, Bukhara, murid.

Ключевые слова: Суфизм, шейх, Яси, Халиф, хурма, Арслан баб, секта, Бухара, студент.

Annotatsiya: Maqola Yassaviylik tariqati asoschisi bo`lmish Ahmad Yassaviyning bolalik chog`lari, umr yo`llari, uning Yassaviy taxallusini olishining tarixi, Yassaviyning piri hisoblanmish Arslan bob bilan uchrashuvi, undan olgan tarbiyasi haqidagi ma`lumotlarni yoritib beradi.

Anotation: The article is about the childhood, life path of Ahmed Yassavi, The founder of of the Yassavi sect, and the history of his nickname Yassavi. It sheds light on Yassavi`s meeting with Arslan Bob , who is considered an elder and the information he received from him

Аннотация: В статье рассказывается о детстве и жизни Ахмеда Яссави, основателя секты Яссави, и истории его прозвища яссави. Оно проливает свет на встречу Яссави с Арслоном Бобом, считающимся старейшиной, и информацию он получил от него.

Xo`ja Ahmad Yassaviy O`rta Osiyoning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy-siyosiy, madaniy jihatdan muhim o`rin tutgan , hozirgi Turkistondagi Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tavvalud topgan.Yassavining vafot etgan yilni tarixchi olimlar o`z asarlarida 1166-1167-deb qayd etganlar.

Yassaviy qachon tug`ulgan ? Qancha umr kechirgan ? Bu savollarga javob esa turli olimlar turlicha vaqtini ko`rsatadilar.

Shahobiddin Yassaviy asarlaridan birida Ahmad Yassaviyning tug`ilgan yili 1103-yil deb aytib o`tgan. Qozoq olimasi S. Taqiboyeva kitobida esa 1105-yil deb ko`rsatgan. Tilshunos Nematovning fikriga ko`ra Yassaviy milodiy 1197 yilda

dunyoga kelgan. Ba`zi olimlar Yassaviy 63 yil umr kechirgan deyishsa ,boshqa birlari 73 va 85 yil yashagan degan to`xtamga kelishgan.

Atoqli Yassaviyshunos Muhammad Fuod Kuprulizodaning aytishicha Yassaviy 120 yosh yashagan ekan . Rus olimi v.A.Gordilevskiy esa A. Yassaviyning yoshini 125 yosh deb ko`rsatadi. v.A.Gordilevskiy Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”dagi:

Yoronlardan fayz va Futuh olomadim
Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim

Shu bayt sababli u Yassaviy aynan 125 yil yashagan deb taxmin qiladi. Agar Yassaviyning vafot tarixini 1166 yil o`laroq qabul qilib, uning “Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim” degan e`tirofi e`tiborga olinsa, unda Yassaviyning tug`ilgan sanasi milodiy 1041-yilga to`g`ri keladi. Tasavvuf tarixiga nazar tashlansa ko`p ulug` shayx va mutasavvuflarning ancha uzoq umr kechirganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Shunga qaramasdan, Yassaviy hayotining 125 yil davom etganiga ishonish qiyin. Birinchidan, “Devoni hikmat”dagi “Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim” degan so`zlar tarixiy haqiqatdan ko`ra, manoqibiy mazmunga ega. Ikkinchidan, 125 yillik uzoq umrning yarmidan ko`pini “yer osti” da (Oltmisch uchda yer ostiga kirdim mano”, deydi Yassaviy) o`tkazish aql bovar qilmas bir hodisadir. Bizningcha , Yassaviyning yashash muddatini 75-85 atrofida belgilagan olimlarning tahminlari haqiqatga yaqin kelsada, aniq hujjat va dalillarga asoslanmaguncha bunday tahminlar tahmin bo`lib qolaveradi. Bundan ko`rinib turadiki haligacha olimlar Ahmad yassaviyning qachon tug`ilganligi va qancha umr kechirganligi haqida aniq ma`lumot yo`q. Xoja Ahmad Yassaviy XI asrning ikkinchi yarmida, Sayramdagi eng nufuzli oilalardan biri Shayx Ibrohim oilasida tavallud topgan. Uning onasi otasi Shayx Ibrohimning xalifasi Muso Shayxning qizi Oyisha xotun edi. Yassaviyning Gavhar Shahnoz ismli opasi bo`ladi. Ahmad avval onasidan, 7 yoshga to`lganida otasidan ajralgach uning tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz shug`ullanadi. Keyin ular Sayramdan Yassi shahriga ko`chib ketadilar. Yosh Ahmad Yassiga kelgach uning birinchi ustozи bo`lmish Arslon bob bilan yuzlashadi. Yassi shahrida undan dastlabki tahsilni oladi. Yassi Ahmadning ma`naviy-ruhoni kamoloti shakllanishida asos yaratib beradi, uning dastlabki kashfu karomatlariga guvoh bo`lgan va Sultonut tariqa, burhon`ul haqiqat, zubdatu`l orifin, shamsu`l avliyo sifatida butun musulmon olamiga shuhrat darvozasini ochgan muqaddas zamindir.

Xoja Ahmad Yassaviy taxallusini olishi haqida ikki xil qarash mavjuddir. Birinchisi, uning Yassida yashaganligi va shu yerda yangi bir tariqatga asos solishga tayanilgan qarash. Ikkinchisi, bir qadar rivoyat mazmuniga ega qarash. Sulton Ahmad Haziniyning “ Javohir ul-abror” asarida naql qilinishicha, Movarounnahrda Yassaviy nomli podshoh bo`lgan ekan. U qishni Samarqandda o`kazib, yoz oylarini Turkistonda o`tkazar ekan. Bir yoz oylarida shahanshoh Qorachuq tog`iga ovga chiqibdi. Lekin

ishi yurishmabdi. Shikordan quruq qaytishdan g`azablangan hukmdor tog`ni butunlay yo`qotishni niyat qilib, barcha mashhur Shayx va pirlarni huzuriga chorlabdi. Lekin ulardan hech biri bu ishni uddalay olmabdi. Shunda u yana kim nazardan qolganligini surishtiribdi. “Sayramda Ahmad otlig` bir bola bor …”, -deyishibdi. . ”Chorlang” debdi shoh. Ahmadga chopar borgach, u opasi bilan maslahatlashibdi. Gavhar Shahnoz unga debdi: “ padari buzrukvorimiz rixlat zamonida vasiyat qilib aytgan edilarki, farzandi arjumandimiz Ahmadning zuhuriga vaqt yetishsa, alomati uldurki, ma`badim ichida bir sufra bordir, u shu sufrani ochishga qodir bo`lar.

Xullas, sufra ochilibdi. Uni olib Ahmad anjumani avliyouullohga qatnashish uchun Yassiga qarab ravona bo`libdi. Dasturxon yozib bir parcha nonni “to`qson to`qqiz ming avliyo va sipohu podshohga” tarqatganda, hammaning qorni to`yib, undan yana ortib qolibdi. Bu karomatu barakani ko`rib, hamma qoyil qolibdi. So`ng otasining xirqasini yopinib duo o`qiganda chor atrofga yomg`ir quyilibdi, yerdagi butun borliq selga g`arq bo`lar holga yetibdi. Nihoyat Ahmaddan yomg`irni to`xtatishni yolvorib so`rashibdi. U xirqadan boshini chiqargani zamon yomg`ir sel to`fonlari ham tinibdi. Qarashsa Qorachuq tog`idan ham nomi nishon ko`rinmasmish. Bu”holati g`ariba va karomati oliyani mushohada” etgan podshoh Xoja Ahmadga:”Olamda har kim bizni sevsu bundan so`ng sening nomingni qo`shib yod aylasin”,- debdi. Shu kundan boshlab Xoja Ahmad Yassaviy taxallusiga erishgan ekan. Bu rivoyat Ahmad Yassaviy hazratlarining bolalik chog`laridayoq kashfu karomat sohibi bo`lganligini isbotlash jihatidan ham ahamiyatli, albatta.

Yuqorida aytib o`tilganidek Yassaviyning birinchi ustozи Arslon bobning nomiga to`xtaladigan bo`lsak “Bob” arabcha “eshik” manosini ifodalaydigan so`z bo`lib, turkchada esa bu kalima islom dini targ`ibi uchun fidoiylik ko`rsatganlarga beriladigan laqab bo`lgan.

Alisher Navoiy Farg`onada “ulug` mashoyixni Bob derlar”,-deydi. Shuningdek, “bob” va “bobo” so`zi shayx, pir, valiylargacha nisbatan ham qo`llanilgan.

Bilamizki, Arslon deganda insoniyat ongida kuch-qudrat, yengilmas jur`at va jasorat timsoli gavdalanadi. Ammo arslon nafaqat jismoniy kuch sohiblari uchun balki, ma`naviy-ruhoni kuch sohiblari uchun ham qo`llaniladigan so`z. Rivoyatlarga ko`ra, qadimgi turklarda din odamlariga hurmat –ehtirom ifodasi sifatida, ularga arslon surati tushirilgan oltin bir taxt yasab berilarkan. Bundan ko`rinib turadiki, Arslon bobning nomida ham shunga yaqin bir ishorat yashiringandir degan taxmin o`z-o`zidan paydo bo`ladi.

Ahmad Yassaviy ustozи Arslon bob bilan uchrashganida u yetti yoshda bo`lganligini aytib o`tadi:

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi,
Har sir ko`rib parda birla bukib yopdi.

Arslon bobning yetti yoshda Yassaviyni izlab topishi haqida ham rivoyat keltirilgan.

Rivoyatga ko`ra, Hazrati payg`ambar sardorlik qilayotgan bir urush chog`ida ashobi kirom ul zotning yonlariga kelib, och qolganliklarini aytishibdi. Payg`ambarning duolari tufayli Jibrili amin Jannatdan bir lagan xurmo olib kelibdi. Shunda xurmolardan bir donasi yerga tushibdi, Jabroil “Bu xurmo sizning ummatingizdan Ahmad yassaviy otlig` bir buyukning nasibasidir” debdi. Har omonatni o`z sohibiga yetkazishga qat`iy amal etuvchi Hazrati Payg`ambar asxoblardan kimdir bu vazifani zimmasiga olishini taklif qilibdilar. Ammo ularning hech biridan sado chiqmagach , Arslon bobo bu ishni zimmasiga olibdi. Payg`ambar (s.a.v) xurmo donasini Arslon bobning og`ziga irg`itgani zamon bir parda zohir bo`libdi. Va Hazrati payg`ambar unga Ahmad Yassaviy qanday kishi bo`lishini tariflab, uning tarbiyasi bilan mashg`ul bo`lishni amr aylabdi.

“Devoni hikmat” da buni haqiqatligini asoslovchi quyidagi so`zlarga e`tabor qaratsak:

Yetti yoshda Arslon bobom berdim salom,
Haq Mustafo omonatni qildi in`om.
O`shal vaqtda ming bir zikrin qildim tamom'
Nafsim o`lib lomakonga oshdim mano.
Xurmo berib, boshim silab, nazar qildi,
Bir fursatda uqbo sori safar qildi,
Alvido deb bu olamdan guzar qildi,
Maktab borib, qaynab, to`lib toshdim mano

Arslon bob vafotidan oldin Ahmad Yassaviyni Buxoroga borib, ilm olishni davom ettirishi kerakligini tayinlagan . Ustozinin vafotidan so`ng Yassaviy uning aytganini qilib, bilimini oshirish maqsadida Buxoroga keladi.

O`sha davrda ilm-fan, madaniyat va m `rifatning Movarounnahrdagi asosiy markazlaridan biri bo`lgan Buxoroda Turkistonning barcha tomonlaridan talabalar ilm olishga kelishgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda, dastlab diniy va taavvufiy ilmlarini yanada mukammal egallahdan boshlaydi. Arab tili bilan birgalikda forsiy tilni ham o`zlashtirgan. M.F. Kuprulizoda ta`kidlab o`tganidek, “Ahmad yassaviy, hech bir jihatdan Islom ilmlari va Eron adabiyotiga begona emasdi. Tahsil va suluk hayotining katta bir qismini Islom- Ajam fikr markazlarida o`tkazganligi uchun qadimgi buyuk Ajam mutasavvif shoirlarning tasavvufiy asarlarini bag`oyat chuqur bilardi.”

Ahmad Yassaviyning Buxoroda o`sha davrning mashhur olimi va sufiysi Shayx Yusuf Hamadoniya murid bo`lgan.

Abduxoliq G`ijduvoniyning “Maqomoti Yusuf Hamadoniy” risolasidan anglashilishicha, Hamadoniyning ko`ngli butun mahluqotga muhabbat timsoli bo`lgan. U bag`oyat sobit zot, oriflikni juda ulug`lagan. Yassaviy qisqa zamonda shayxning

е`tiborini qozonib, undan olgan fayz ila kamol martabasiga yuksalgan va Hamadoniying uchinchi halifaligiga erishgan. Shundan so`ng, ya`ni ‘irshod va da`vat maqomi” qo`lga kiritilgach, “Хо`ja Ahmad Yassaviy Turkiston sori azimat”aylab yangi bir tariqatga asos soladi. Yassaviylik nomi bilan dong taratgan bu tariqat bir turk mashoyixi tomonidan turkiy xalqlar orasida bunyod etilgan ilk tasavvuf tariqati edi.

Ahmad Yassaviy yigirma yoshgacha Buxoro va boshqa shahar, viloyatlarda ilm-ma`rifat o`rgandi. O`zida barcha insonlarga xos xilma-xil illatlardan qutilishiga intildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ibrohim Haqqul. “Ahmad Yassaviy” Adabiyot va san`at nashriyoti. T.: 2001;
2. Ahmad Yassaviy. “Devoni hikmat”. T.: 1993;
3. Komilov. N. “Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-2 kitob. T.: 1996,1998;
4. Xoja Ahmad Yassaviy. “Devoni Hikmat”. T.: 2004;
5. Al-Buxoriy. Hadis, Al-Jome` as-sahih. T.:1991-1992 yillar, 1-2 kitoblar;
6. Komilov.N “Tasavvuf” . T.:1996;
7. Ahmadovna, J. N., & Axmatovna, J. N. (2024). BUXORO VOHASI DEHQONCHILIK MADANIYATI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(4), 5-10.
8. Жумаева, Н. А. (2022). БУХОРО ВОҲАСИДА ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР (XIX аср охири XXаср бошлари): <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.037> Жумаева Нилуфар Ахматовна, БухДУ Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (10), 30-39.
9. Ahmadovna, J. N. (2022). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(3), 23-31.
10. Жумаева, Н. А., & Утаева, Ф. Х. ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 49.
11. Джумаева, Н. А. (2023). Об Обычаях, Связанных Со Сбором Колосовых Культур В Бухарском Оазисе (Конец XIX Века, Начало XX Века). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 10-13.
12. Akhmatovna, D. N., & Bahridinovna, T. G. (2020). Traditions related to harvesting grain crops in Bukhara region (The end of XIX century and the beginning of XX century). *Academy*, (6 (57)), 39-40.

13. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriiddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.
14. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriiddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.
15. Utayeva, F. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ИЛМИЙ ТАРИХИЙ МАТБУОТДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6).
16. Utayeva, F. (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
17. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197.
18. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Farg'onan davlat universiteti*, (1), 49-49.